

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand iqtisodiyot va servis
institut rektori M.E.Po‘latov

_____ 2024 y.

**60411100 – “JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY
MUNOSABATLAR” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida
kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni (abituriyentlarni) sirtqi
ta’lim shakliga tabaqalashtirilgan to‘lov kontrakt asosida o‘qishga qabul
qilish bo‘yicha suhbat o‘tkazish va baholash**

DASTURI

SAMARQAND -2024

- Tuzuvchilar:** I.I.Ayubov – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası mudiri, i.f.f.d.
Sh.A.Kuldashev – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası katta o‘qituvchisi, i.f.f.d.
U.X.Xolboyev – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası katta o‘qituvchisi
- Taqrizchilar:** N.U.Arabov – Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti “Inson resurslarini boshqarish” kafedrası mudiri i.f.d., professor
B.Sh.Safarov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali i.f.d., professor

Ushbu dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan tasdiqlangan (2024-yil “29”-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni).

KIRISH

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyunda "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-sonli farmoyishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 4-noyabrda "Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 675-son qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

"Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash va strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish natijasida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllandi, o'zaro ishonch kuchaydi. Davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport, energetika, madaniyat va boshqa sohalarda aloqalar faollashdi. Bulaming barchasi xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mintaqani izchil rivojlantirish, uning investitsion jozibadorligini oshirish, jahon iqtisodiyotiga keng integratsiya qilishga xizmat qilmoqda." - degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish»¹ maqsadining qo'yilishi ham tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda uning hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida aniq vazifalarni belgilab berdi. Shu bilan birga hududiy darajada va xalqaro darajada iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash, buxgalteriya yozuvlari va ishlanmalarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq keladigan formatini ishlab chiqish masalalari dolzarb hisoblanadi.

60411100-“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari, iqtisodiy qonuniyatlari, jahon iqtisodiyotining tarkibi va undagi mamlakatlarning guruhlanishi, xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining harakati, xalqaro kapital va investitsiyalar harakatini jadallashtirishda erkin iqtisodiy hududlarning roli, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tasniflanishi hamda mamlakatimizning jahon xo'jaligida ishtiroki va tutgan o'rni kabi masalalarning o'rganish va tahlil etish **haqida tasavvurga va amaliy kompetensiyalarga ega bo'lishi;**

-xo'jalik jamiyatining barcha jabhalarida integratsiya va globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi asosiy rivojlanish tendensiya va yo'nalishlarini aniqlash maqsadida ilmiy-amaliy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

tadqiqotlarni o'tkazishni va me'yoriy- huquqiy asoslarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida statistik ma'lumotlarni ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb - hunar ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash hamda uni tadbiq etish, o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida professional darajada qo'llashga erishish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

- fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish ***malakalariga ega bulishi kerak***.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati bo'yicha savollar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyul kuni poytaxtimizdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig'ilishi rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv mohiyati va mazmuni.

3. 2022 yil 21-iyul kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvidagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 24 iyun kuni "BRICS plus" formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo'yicha uchrashuvidagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

5. 2022 yil 21 iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

6. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi asosiy vazifalar.

7. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, ularni zarur infratuzilma bilan ta'minlash chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

8. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 31-mart kuni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, biznesni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

9. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda Jahon iqtisodiyoti va xalqora iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati.

10. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishda Jahon iqtisodiyoti va xalqora iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati.

11. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqligi.

12. Jahon iqtisodiyoti va xalqora iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning konseptual asoslari bo'yicha islohotlar.

13. Bugungi kundagi soliq islohotlari.

14. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish ulushini ko'paytirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

15. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

**60411100-“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” ta'lim yo'nalishi
sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarining mavjudligi bo'yicha savollar**

1. Jahon xo'jaligining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari
2. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlari.
3. Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta'sir etuvchi omillar.
4. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining zamonaviy o'ziga xos tomonlari.
5. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi.
6. “Ochiq iqtisodiyot”ning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo.
10. Xalqaro savdo kontsepsiyasi.
11. Xalqaro savdoning klassik nazariyalari.
12. Xalqaro savdoda umumiy muvozanat.
13. Xalqaro savdoning yangi nazariyalari.
14. Mintaqaviy integratsion jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda
15. Mutloq ustunlik nazariyasini tushuntirib bering.
16. Jahon ishchi kuchi bozorining vujudga kelish sabablarini ayting
17. Mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va markazlarini ayting.
18. Ishchi kuchi importidan olinadigan iqtisodiy samara qanday?
19. Kapital eksportining asosiy shakllari va uning o'ziga xos tomonlari
20. Kapital migratsiyasining asosiy sabablarini tavsiflab bering.
21. Kapital migratsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsating.
22. Xalqaro kapital bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni xarakterlab bering
23. Transmilliy korporatsiyalarni tavsiflab bering.
24. TMKlarni jahon bozorlariga kirib borish usullarini ochib bering.
25. Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati va ko'rinishlarini tushuntirib bering.
26. Erkin iqtisodiy zonalarining asosiy turlari
27. Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishda jahon tajribalari.
28. Erkin iqtisodiy hudud deganda nimani tushunasiz.
29. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan maqsad nima
30. Qaysi mamlakatlarning EII tashkil etish bo'yicha tajribalarini bilasiz va ularning xususiyatlari qanday.
31. Offshor hududlarning savdo hududlaridan farqi nimada.
32. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va tarkibi.
33. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.
34. Valyuta kursi qanday aniqlanadi.
35. Valyuta pariteti nima.
36. Jahon valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz.
37. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib bering.
38. Bretton-Vud valyuta tizimining xususiyatlari nimada.
39. Yamayka tizimini vujudga kelishining sabablari nimada.

40. Evrodollar nima.
41. Evroning kiritilishi Yel davlatlari va, shuningdek, jahon iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi.
42. Xalqaro moliya bozorlaridagi tendensiyalami gapirib bering.
43. Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rni.
44. Sanoati rivojlangan davlatlar guruhiga qaysi mamlakatlar kiritiladi.
45. Jahon iqtisodiy rivojlanishining uchta asosiy markazini ko'rsatib bering.
46. "Katta yettilik" yoki "katta sakkizlik"ka kiruvchi davlatlarni sanab bering.
47. Rivojlangan davlatlarning tashqi iqtisodiy ekspansiyasini amalga oshirishda TMK qanday o'rin tutadi.
48. Sanoati rivojlangan davlatlar ishtirokidagi qanday integratsion guruhlarni bilasiz.
49. Yaponiya iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni sanab o'ting.
50. Yaponiya iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligi nimalar hisobiga erishilgan.
51. Osiyo mintaqasida qanday mamlakatlar mavjud.
52. Yangi industrial mamlakatlarning 1-toiqiniga mintaqadagi qaysi mamlakat yoki hududlar kiradi.
53. Milliy hisoblar tizimi nima va uning tarkibiy qismlari.
54. Iqtisodiy jihatdan eng qashshoq mamlakatlar qaysi mintaqada mavjud.
55. Mintaqalardagi davlatlar orasida eng kam rivojlangan mamlakatlar qaysilar.
56. Mana shu 3ta mintaqada mamlakatlari rivojlanishidagi o'xshash va ular orasidagi farqlarni tahlillar yordamida aniqlang.
57. Shimoliy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalari mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish modellarini tahlil eting.
58. Iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
59. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning bosqichlari xarakterlab bering.
60. Erkin savdo hududlarini tavsiflab bering.
61. Integratsion jarayonlar milliy davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini xarakterlab bering.
62. Yel qachon va qaysi davlatlar tomonidan tashkil etildi.
63. Jahondagi integratsion birlashmalar haqida siz nima bilasiz.
64. NAFTAning tuzilishidan asosiy maqsad nima va unga qaysi davlatlar a'zo.
65. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qanday tasniflanadi.
66. BMT va BMT tizimidagi tashkilotlarning jahon xo'jaligidagi roli qanday.
67. Buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish tartibi.
68. Xalqaro hududiy tashkilotlar va ularning funksional vazifalari nimalardan iborat.
69. JSTga a'zo bo'lish bosqichlarini xarakterlab bering.
70. O'zbekiston Respublikasining jahonning yetakchi mamlakatlari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalarining rivojlanish istiqbollari tavsiflab bering.
71. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan olib borayotgan aloqalarni xarakterlab bering.
72. O'zbekiston Respublikasining Jahon banki guruhi bilan munosabatlarini ochib bering.
73. O'zbekiston JSTda qanday maqomga ega.
74. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish bosqichlarini xarakterlab bering.

75. O‘zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishini izohlang.

BAHOLASH ME‘ZONLARI

Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;
- belgilangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashdan asosiy maqsad;
- belgilangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalar;
- belgilangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan savollar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat jarayonida *olish mumkin bo‘lgan maksimal ball miqdori 100 ballni tashkil etadi va baholash yaxlitlangan holda butun sonlarda ifodalanadi. Bunda har bir savol uchun maksimal 25 balldan ajratiladi.*

Suhbat natijalari bo‘yicha to‘plagan umumiy ball quyidagi mezonlarga asoslanadi.

T/r.	Baho	Xususiy ball
1	A‘lo	86,0-100
2	Yaxshi	71,0-85,0
3	Qoniqarli	56,0-70,0
4	Qoniqarsiz	0-55,0

Muayyan ta‘lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a‘zolari tomonidan to‘ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘i to‘ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi **55 balldan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.**

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. A.M. Alimov, E.A. Maxmudov, N.X. Xaydarov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: Zilol buloq nashriyoti 2020.
2. Vaxabov A.V. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: Voris -nashrioyti. 2014 y
3. N.S.Ismailova, U.U. Shagazatov Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: “NOSHIR» 2019 y. 320 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
4. I.I.Ergashev, N.A. Raximova Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Uslubiy qollanma. Samarqand 2020 y. 211 b
5. Мировая экономика и международный бизнес: учебник/ кол. авторов; под. общ. ред. д-ра экон. наук, проф. В.В.Полякова и д-ра экон. наук, проф. Р.К.Щенина. – 5-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2008. - 688 с.
6. Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная микроэкономика: движение товаров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. – М.: Междунар. отношения, 2000. С. 234.
7. Мировая экономика и международный бизнес: учебник/ кол. авторов; под. общ. ред. д-ра экон. наук, проф. В.В.Полякова и д-ра экон. наук, проф. Р.К.Щенина. – 5-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2008. - 688 с.

Axborot manbalari (saytlar):

1. <http://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.
2. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.